XALQ DEPUTATLARI QARSHI SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 17-iyul VII-23-98-4-69-K/26 Qarshi shahar

Qarshi shahrida obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan koʻrsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun toʻlov tariflari miqdorini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-387-sonli qarorning 8.a-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tumanlar markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatishga ruxsat berilgan.

Bunda, chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatganlik boʻyicha tariflar tuman (shahar) hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga koʻrib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilangan.

Shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan shahar markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha Qarshi shahar hokimining oʻrinbosari F.Dustmurodovning taklifini koʻrib chiqib, hamda yuqoridagilarni inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qarshi shahrida obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan koʻrsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun toʻlov tariflari miqdorini tasdiqlash toʻgʻrisida Qarshi shahar hokimining oʻrinbosari F.Dustmurodovning taklifi maʻlumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan shahar markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida

chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha tariflar ilovaga muvofiq maʼqullansin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (N.Farmonov) hamda bajarilishini taʼminlash shahar hokimining oʻrinbosari (F.Dustmurodov) zimmasiga yuklansin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

5. Ushbu qaror rasmiy veb-sayt va ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilinsin.

Kengash raisi **XALIMOV MURODULLA ZIYODULLAYEVICH**

Xalq deputatlari Qarshi shahar
Kengashining
2026-yil 17-iyuldagi
VII-23-98-4-69-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan shahar markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha

TARIFLAR

Xizmat koʻrsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqam**	**Oʻlchov birli**	**Tarif miqdori (soʻm)** (QQS bilan)
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	88 264,0
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun	Obodonlashtirish	m^2	7 500,0